



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RAQAMLI BIRLIKLARNING MATNIY VA POETIK FUNKSIYALARI

Zuxurova Oqila Ilhom qizi

Buxoro davlat universiteti

zuxurovaoqila@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Mazkur tezis Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan raqam bildiruvchi birliklarning badiiy matn tarkibidagi funksional xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda raqamlarning faqat ramziy ma’no tashuvchi birlik sifatidagi tabiati emas, balki matnni tashkil etish, obrazlar o‘rtasidagi munosabatni belgilash, kompozitsion tartibni yuzaga keltirish, tarixiy-madaniy xotirani faollashtirish va poetik san’atlar bilan uyg‘unlashish imkoniyatlari ham tahlil qilinadi. “Xamsa” dostonlari hamda “Xazoyin ul-maoniy” devonlari asosida olib borilgan kuzatuvlar bir xil raqamning turli matnlarda turlicha poetik yuk kasb etishini ko‘rsatadi. Ayniqsa “besh”, “to‘rt”, “yetti”, “olti” kabi birliklarning xamsachilik, koinot tasavvurlari, inson idroki, an’anaviy birikmalar va lirik kechinma bilan aloqasi matniy hamda kontekstual yondashuv asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, raqamli birlik, poetik funksiya, matn, ramz, majoz, kontekst, kompozitsiya, tanosub, tadrij, talmeh, “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”.*

KIRISH. Alisher Navoiy badiiy tafakkurida tilning har bir elementi muayyan estetik vazifaga jalb etiladi. Shu jihatdan raqamlar ham oddiy hisob yoki miqdorni ifodalash doirasida qolmay, badiiy matnning semantik va kompozitsion tizimiga faol kirishadi. Shoir asarlarida uchraydigan bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, o‘n ikki, qirq kabi birliklar aniq miqdorni ko‘rsatish bilan birga, muayyan tarixiy-madaniy tasavvurlarni ham



ishga tushiradi. “Ikki olam”, “to‘rt unsur”, “yetti falak”, “to‘qqiz sipehr”, “o‘n ikki burj” singari birikmalar esa raqamning nominativ vazifasidan tashqariga chiqib, poetik mazmunning tarkibiy qismiga aylanadi. Ushbu ikki qatlam — miqdoriy va badiiy — ko‘pincha bir-birini to‘ldiradi.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, raqamning badiiy matndagi ikki tomonlama tabiatini aniq ajratish zarurati bilan belgilanadi. Bir tomondan, son vaqt, yosh, masofa, miqdor yoki tartibni bildiradi; ikkinchi tomondan, ko‘p asrlik diniy, falsafiy va adabiy xotira bilan bog‘langan birliklar tarkibida qo‘shimcha ma‘no hosil qiladi. Biroq raqamning mavjudligi avtomatik ravishda ramziy ma‘no mavjudligini anglatmaydi. Raqamning poetik qiymati uni o‘rab turgan so‘zlar, obrazlar, janr, baytning umumiy mazmuni va asar kompozitsiyasidagi o‘rni bilan belgilanadi. Bu tamoyil Navoiy raqamlarining talqinida asosiy metodik mezon sifatida olinadi.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan raqamli birliklarning matniy va poetik funksiyalarini aniqlash, ularning epik va lirik matndagi farqli ko‘rinishlarini qiyoslash hamda raqamning an‘anaviy ma‘nosi bilan konkret badiiy vazifasi o‘rtasidagi munosabatni yoritishdan iborat. Shu maqsad asosida raqamning miqdoriy, kompozitsion, tarixiy-madaniy va ramziy-majoziy qatlamlari o‘zaro bog‘liq holda kuzatiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Navoiyshunoslikda raqamlar masalasi uzoq vaqt davomida poetika, xamsachilik, tasavvuf, olam tasviri, abjad va badiiy san‘atlar doirasida bilvosita o‘rganib kelingan. Y.Is‘hoqovning Navoiy poetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari raqamlarning badiiy san‘atlar va poetik tizim bilan munosabatini anglash uchun nazariy asos beradi. E.E. Bertels va A. Hayitmetovning ishlari esa Navoiy ijodining tarixiy-adabiy muhiti, xamsachilik an‘anasi va “Xamsa”ning yaratilish jarayonini tushunishda muhim

manba bo‘lib xizmat qiladi.¹

Raqam ramzlariga bevosita murojaat qilgan tadqiqotlar orasida S. Jumayevaning o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi raqam ramzlari va ularning talqiniga bag‘ishlangan ishlari alohida o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqotlar raqamning diniy, falsafiy, mifologik va badiiy qatlamlarini tizimli ko‘rib chiqishga imkon beradi. S. Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfası” asari “Sab’ai sayyor”dagi yettilik, rang va sayyora tizimini tushinishda muhim manba hisoblanadi. N. Bekovanning Navoiy poetikasi va forsiy merosiga oid izlanishlari mavzuning ayrim jihatlarini bevosita to‘ldiradi.²

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirganda, raqamlarning alohida ramziy ma’nolari va ayrim asarlardagi qo‘llanishi haqida yetarli kuzatuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, raqamni faqat ramz sifatida emas, balki matnni tashkil etuvchi, poetik san’atlarni faollashtiruvchi va janrga qarab turlicha ishlaydigan funksional birlik sifatida izchil tahlil qilish masalasi yanada chuqurroq yondashuvni talab qiladi. Mazkur tezisning yangiligi ham ana shu nuqtada — raqamning ma’nosidan tashqari uning matndagi “badiiy ishi”ni aniqlashga e’tibor qaratilishida ko‘rinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotning manba bazasini, avvalo, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari va “Xazoyin ul-maoniy” devonlari tashkil etadi. Zarur hollarda “Lison ut-tayr” va boshqa asarlardagi raqamli birliklardan qiyosiy material sifatida foydalaniladi. Asosiy manba sifatida Navoiy matnining nashr variantlari olinib, ikkilamchi adabiyotlar mazmunni sharhlash va tarixiy-madaniy kontekstni belgilash uchun yordamchi manba vazifasini bajaradi.

1 Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983; Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1948; Hayitmetov A. “Xamsa”ning yaratilish jarayoni // Sharq yulduzi. – 1985. – № 9. – B. 152–158.

2 Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning talqini (XII–XV asrlar): filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2006; Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 192 b.; Bekova N.J., Zuxurova O.I. Alisher Navoiy “Xamsa”sida besh raqamining ramziy-majoziy ma’nolari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2025. – № 3 (120). – B. 104–108.

Tahlilda matniy, kontekstual, qiyosiy, semantik-funksional va poetik tahlil usullaridan foydalaniladi. Matniy yondashuv raqamning ayni bayt, gʻazal yoki doston parchasidagi oʻrnini belgilashga; kontekstual tahlil uning yonidagi obraz va tushunchalar bilan munosabatini aniqlashga; qiyosiy tahlil bir raqamning turli janr va asarlardagi vazifalarini solishtirishga xizmat qiladi. Semantik-funksional yondashuv raqamning lugʻaviy maʼnosi bilan badiiy vazifasi oʻrtasidagi farqni ochsa, poetik tahlil tanosub, tadrij, tazod, talmeh va mubolagʻa kabi sanʼatlar bilan aloqasini koʻrsatadi.

ASOSIY QISM. Badiiy matnda raqamning tabiiy vazifasi miqdorni bildirishdir. Biroq raqam maʼlum obraz, hodisa yoki makon bilan birikkanida uning nominativ vazifasi kengayadi. “Yetti falak”, “toʻqqiz sipehr”, “oʻn ikki burj” kabi birliklarda son kosmik tasavvurlarni ixcham shaklda ifodalashga yordam beradi. Bu yerda raqam mustaqil ramzdan koʻra, tarixiy-madaniy maʼnoni faollashtiruvchi tarkibiy unsur sifatida namoyon boʻladi. Demak, raqamning poetik imkoniyati uning oʻzidan koʻra, matnda qaysi birliklar bilan birikishida koʻproq namoyon boʻladi.

Raqamning kompozitsion vazifasi ayniqsa epik matnda yaqqol koʻrinadi. “Xamsa”ning besh dostonli tuzilishi xamsachilik anʼanasining bevosita belgisi boʻlish bilan birga, butun majmuaning kompozitsion yaxlitligini ham taʼminlaydi. “Sabʼai sayyor”dagi yettilik tizimi esa yetti qasr, rang, sayyora va hikoyalar bilan bogʻlangan holda syujet materialini guruhlaydi. Shunday qilib, son asar qurilishining ichki oʻlchovi sifatida ham xizmat qiladi.

Navoiy “Hayrat ul-abror”da “Xamsa” nomini “panj ganj” — besh xazina sifatida taʼriflaydi: *“Xamsa” dema, balki degil panj ganj, / Kaffai mizon anga aflok oʻlub.*³

Mazkur misolda besh raqami faqat miqdorni koʻrsatmaydi. “Panj ganj” birikmasi xamsachilik anʼanasini eslatadi, “Xamsa” nomini obrazli ravishda

3 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 jildlik. 7-jild. “Xamsa”: “Hayrat ul-abror”. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 46.

qayta ifodalaydi va adabiy xotirani faollashtiradi. Demak, bitta raqam bir vaqtning o'zida nomlash, kompozitsiya va talmeh vazifalarini bajara oladi.

Lirik matnda esa raqamning vazifasi ixcham, ammo semantik jihatdan zichroq ko'rinadi. "Xazoyin ul-maoniy" devonlarida sonlar lirik kechinma, tanosub, tazod, tadrij, mubolag'a va talmeh tarkibida kelib, baytning ma'no harakatini kuchaytiradi. Devonlarda yagona syujet mavjud emasligi sababli raqamning badiiy vazifasi ko'proq bayt ichidagi so'zlararo munosabat, obraz va ruhiy holat bilan belgilanadi.

Shu nuqtada raqam va poetik san'atlar o'rtasidagi munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Bir necha raqamning ketma-ket kelishi tanosub-i a'dadni, ularning izchil ortib yoki kamayib borishi esa tadrijni yuzaga chiqarishi mumkin. "Ikki"ning juftlik va qarama-qarshilikni ifodalovchi birliklar bilan kelishi tazodning semantik maydonini kuchaytiradi. "Besh"ning "panj ganj", "besh his", "besh kun" kabi turli birikmalarda qo'llanishi esa raqamning birgina ramziy qolipga sig'masligini ko'rsatadi.

Farhod nomi bilan bog'liq baytda besh raqami harf sanog'i bilan birlashadi: *"Anga farzona Farhod ism qo'ydi, / Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi. / Firoqu rashku hajru oh ila dard, / Birar harfibtidodin aylabon fard."*⁴

Bu baytda besh soni oddiy sanashdan ko'ra, ism, harf va ruhiy kechinmalar o'rtasidagi poetik aloqani tartibga soladi. "Firoq", "rashk", "hajr", "oh", "dard" kabi tushunchalarning harf va son bilan bog'lanishi so'z o'yinini yuzaga keltiradi. Shu sababli bu misol raqamning fonetik-grafik va semantik qatlamlarni birlashtirish imkoniyatini ko'rsatadi.

"Favoyid ul-kibar"ning 506-g'azalida raqamlar ketma-ketligi yanada murakkab kompozitsion vazifa bajaradi: *"Desang falakka chiqay, foniyl ul anosirdin, / Nedinki, ruhungadur chormix bu to'rtov. / Havosi xams ila maqsud*

⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 8-jild: "Farhod va Shirin". – Toshkent: Fan, 1991.

bo'lmadi mudrik, / Ko'ngulni top iki-uch uzv, besh emas bu beshov."⁵

Mazkur g'azalning poetik qurilishi birdan sakkizgacha davom etuvchi izchil raqamli tadrijga asoslangan. Fikr "birov", "ikov", "uchov", to'rt unsur, besh sezgi, "Sittai zaruriya" bilan bog'liq oltilik, yetti ko'k va sakkiz uchmoq sari kengayadi. Har bir raqam alohida tushuncha bilan birikib, sanash tartibini mazmuniy harakatga aylantiradi. Natijada raqamlar silsilasi g'azalning ichki kompozitsiyasini boshqaradi va fikrning bosqichma-bosqich rivojlanishiga xizmat qiladi.

Raqamning madaniy xotirani faollashtirish xususiyati ham shu jarayon bilan bog'liq. "To'rt unsur", "olti jihat", "yetti falak", "o'n ikki burj" kabi birliklar o'rta asr kishisining olam haqidagi tasavvurlarini birgina ixcham ifoda orqali matnga olib kiradi. Bunda raqam tayyor ma'noni mexanik ravishda takrorlamaydi; balki muayyan poetik vaziyatda an'anaviy ma'no qatlamini yangidan faollashtiradi. Shu sababli raqam talmehning iqtisodiy va ta'sirchan vositasiga aylanishi mumkin.

"Sab'ai sayyor"dagi yettilik ham aynan shunday ko'p qatlamli xususiyatga ega. Yetti qasr, yetti rang, yetti sayyora va yetti hikoya o'zaro bog'lanib, dostonning kompozitsion tizimini tashkil etadi. Bu holatda yetti sonini faqat "muqaddas ramz" sifatida talqin qilish yetarli emas: u, eng avvalo, asar qurilishining aniq tashkilotchisi, keyin esa an'anaviy kosmologik tasavvurlarni uyg'otuvchi poetik signal sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, "Xazoyin ul-maoniy"ning to'rt devondan tuzilishi ham sonning kompozitsion imkoniyatini ko'rsatadi. "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi' ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar" nomlarining inson umrining turli bosqichlari bilan bog'lanishi to'rtlikni oddiy sanashdan tashqari, vaqt va hayot tajribasining badiiy modeli sifatida ko'rsatadi. Demak, raqamli birlikning badiiy vazifasi ba'zan alohida baytda emas, butun asar yoki majmua

5 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 6-jild: Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 355. 506-g'azal.

qurilishida yuzaga k

XULOSA. Alisher Navoiy asarlaridagi raqamli birliklarni matniy va poetik nuqtayi nazardan o'rganish shuni ko'rsatadiki, son badiiy matnda ko'p funksiyali birlik sifatida namoyon bo'ladi. U miqdor va tartibni bildirish bilan cheklanmay, kompozitsiyani tashkil etadi, makon va vaqt ko'lamini belgilaydi, tarixiy-madaniy xotirani faollashtiradi hamda tanosub, tadrij, tazod, talmeh va mubolag'a kabi poetik vositalarning tarkibiy unsuriga aylanadi.

“Xamsa” va “Xazoyin ul-maoniy” materiallarini qiyoslash raqamning poetik funksiyasi janrga qarab o'zgarishini ko'rsatadi. Dostonlarda sonlar voqea, makon, vaqt, qahramonlar tizimi va kompozitsion tartib bilan faolroq bog'lansa, g'azallarda ularning semantik zichligi ortib, lirik kechinma va badiiy san'atlar bilan aloqasi kuchayadi. Bir xil raqamning turli asarlardagi vazifasini tenglashtirmaslik Navoiy poetikasining ichki rang-barangligini aniqroq ochib beradi.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, raqamli birliklarni o'rganishda miqdoriy kuzatuv, matniy tekshiruv va kontekstual-poetik tahlil bir-birini to'ldirishi lozim. Ana shunday yondashuv Alisher Navoiy badiiy tafakkurida hisob, tartib, an'ana va ma'no o'rtasidagi murakkab aloqalarni yanada aniqroq ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 3-jild. Xazoyin ul-maoniy: G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: Fan, 1988.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 6-jild: Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 7-jild. “Xamsa”: “Hayrat ul-abror”. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 8-jild: “Farhod va Shirin”. – Toshkent: Fan, 1991.



5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 10-jild. “Sab’ai sayyor”. – Toshkent: Fan, 1992.
6. Hayitmetov A. “Xamsa”ning yaratilish jarayoni // Sharq yulduzi. – 1985. – № 9. – B. 152–158.
7. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 192 b.
8. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991. – 234 b.
9. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
10. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – 456 b.
11. Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning talqini (XII–XV asrlar): filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2006.
12. Jumayeva S. Navoiy she’riyatida raqam va tasvir mutanosibligi // Til va adabiyot ta’limi. – 2018. – № 2.
13. Bekova N. Alisher Navoiy she’riyatida hamd poetikasi. – Toshkent: Fan, 2006.
14. Bekova N. Navoiyona hassoslik. – Toshkent: Fan, 2007.
15. Bekova N.J., Zuxurova O.I. Alisher Navoiy “Xamsa”sida besh raqamining ramziy-majoziy ma’nolari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2025. – № 3 (120). – B. 104–108.
16. Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – Москва–Ленинград: АН СССР, 1948.
17. Schimmel A. The Mystery of Numbers. – New York: Oxford University Press, 1993.
18. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.

